Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
111400 - O‘zbek tili va adabiyoti
4-bosqich yo‘nalishi talabalariga 7-semestr uchun
« Navoiyshunoslik» fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

Fandasturdagi mavzu tartib raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo‘ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo‘ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo‘ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo‘ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to‘liq anglashga yo‘naltiradigan savollardan iborat bo‘ladi
1	Navoiyshunoslik fanning sohasi, obyekti va maqsadini tushuntiring.	Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma’lumotlarni tahlil qiling.	Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi tarixini yoriting.	Xondamirning “Makorim ul-axloq” va Vosifiyning “Badoyi’ ul-vaqoye’” asarlarida Navoiy siymosini qiyoslang.	Mustaqillik davri navoiyshunosligidagi yangicha metodologik yondashuvlar va bugungi dolzarb muammolarni baholang.
2	Alisher Navoiyning bolalik va yoshlik yillari haqida ma’lumot bering.	Hirot va Samarqand adabiy muhitining Navoiy kamolotiga ta’sirini izohlang.	Navoiyning davlat va jamiyat arbobi sifatidagi bunyodkorlik faoliyatini yoriting.	Navoiy va Husayn Boyqaro ijodiy hamkorligi hamda adabiy doira rahbarligini tahlil qiling.	Navoiyning komil inson va adolatli jamiyat haqidagi qarashlarining bugungi kunda tutgan o‘rnini xulosalang.
3	Alisher Navoiy lirik merosining umumiy janrlar tarkibini ayting.	Navoiyning “Ilk devon”i va uning yaratilish tarixini izohlang.	Oqquyunli muxlislar devonining tuzilishi va manbalarini tahlil qiling.	“Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlarining qiyosiy-struktural tahlilini bering.	Navoiyning lirik merosida ruhiy holatlar evolyutsiyasi va shaxsiy kechinmalar tasvirini baholang.
4	“Xazoyinul-maoniy” kulliyoti tarkibidagi 4 devon nomini ayting.	Kulliyotning yaratilish tarixi va yosh davrlariga ko‘ra taqsimlanishini tushuntiring.	Debochada devon tuzish va adabiy-estetik qarashlarning berilishini tahlil qiling.	Kulliyotdagi g‘azal, musammat va qasidalarning o‘zaro nisbati va poetik tizimini yoriting.	“Xazoyin ul-ma’oniy”ning Sharq lirikotidagi tutgan o‘rni va lirik qomus sifatidagi ahamiyatini xulosalang.
5	G‘azal janrining tarkibiy qismlari (matla’, maqta’, shohbayt)ni ayting.	Navoiy g‘azallarida oshiq, ma’shuq va ag‘yor obrazlari talqinini izohlang.	G‘azallarda rindona va orifona yo‘nalishlarning g‘oyaviy-badiiy farklarini tahlil qiling.	G‘azallarda tasavvufiy ramzlar (ishq, may, soqiy, pir, xarabat) sharhini berib o‘ting.	Navoiy g‘azallarida emotsional ta’sirchanlik va poetik sintaksis mahoratini baholang.
6	Ruboiy, tuyuq, qit’a va fard janrlarining ta’rifini bering.	Navoiy qit’alarida ijtimoiy-axloqiy va ma’rifiy g‘oyalar ifodasini izohlang.	Tuyuq janri va unda tajnis san’atining qo‘llanilish mahoratini tahlil qiling.	Musammat turlari (muxammas, musaddas, tarji’band, tarkibband) va ularning tuzilishini yoriting.	Navoiyning kichik lirik janrlarda falsafiy va hikmatli xulosalar chiqarish mahoratini baholang.
7	“Devoni Foniy” asarining tili va yaratilish sababini ayting.	“Devoni Foniy”dagi g‘azallarning mavzu rang-barangligi va uslubiy xususiyatlarini izohlang.	“Devoni Foniy”dagi qasidalar turkumi va ularning kompozitsion qurilishini tahlil qiling.	Navoiyning Hofiz va Jomiy g‘azallariga bog‘lagan tatabbu’ hamda naziralari xususiyatlarini yoriting.	Navoiyning ikki tilda (ikki bahrda) birdek barakali ijod qilish fenomieni va uning ahamiyatini xulosalang.
8	Aruz vazni, ruknlar va zihoflar haqida boshlang‘ich tushuncha bering.	“Mezon ul-avzon” risolasining yaratilishi va unda turkiy aruz masalalarini izohlang.	Aruzning Hazaj, Ramal va Rajaz bahrlari hamda ularning tarmoqlarini tahlil qiling.	Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida keltirilgan ruboiy tahlili. Axram va axrab shajarasi haqida gapirib bering.	Navoiy she’riyatida aruz vaznining his-tuyg‘ular va mantiqiy urg‘u bilan uyg‘unligini baholang.
9	Sharq adabiyotida xamsachilik an’anasi va uning asoschilarini ayting.	Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy “Xamsa”larining xususiyatlarini izohlang.	Navoiy “Xamsa”sining yaratilish tarixi va turkiy tildagi birinchi “Xamsa” ekanligini tahlil qiling.	Navoiy “Xamsa”sining dostonlari va ularda qo‘llanilgan aruz bahrlari tizimini yoriting.	Navoiy “Xamsa”sining jahon va turkiy dostonchilik taraqqiyotida tutgan o‘rnini xulosalang.
10	“Hayrat ul-abror” dostonining janri va umumiy kompozitsiyasini ayting.	“Hayrat ul-abror”dagi muqaddima qismi va birinchi-ikkinchi maqolatlar mazmunini izohlang.	“Hayrat ul-abror”da shoh va gado, adolat va zulm masalalarining badiiy ifodasini tahlil qiling.	“Hayrat ul-abror”dagi tasavvufiy maqomatlar va komil inson kontseptsiyasining berilishini yoriting.	“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarning g‘oyaviy-ma’rifiy vazifasi va ramziy ma’nolarini xulosalang.
11	“Farhod va Shirin” dostonining syujet yo‘nalishini ayting.	“Farhod va Shirin”da Farhod va Shirin obrazlarining xarakter xususiyatlarini izohlang.	Farhod obrazining tasavvufiy-ramziy talqini va uning komil inson sifatidagi o‘rnini tahlil qiling.	Shirin – ilohiy mazhar hamda Xusrav, Shopur, Qaran obrazlari tizimini yoriting.	“Farhod va Shirin”dagi tilsimlar, armoniylik va oshiqona dramatizmning falsafiy mohiyatini baholang.
12	“Layli va Majnun” dostonida kuylangan bosh g‘oyani ayting.	“Layli va Majnun”da insoniy muhabbatning ilohiy ishq darajasiga ko‘tarilishini izohlang.	Majnun – ilohiy ishq yo‘lidagi majzub va komil inson simvolini tahlil qiling.	“Layli va Majnun”dagi ruhiy dramatizm, fojiaviylik va allegorik obrazlar tizimini yoriting.	Navoiy “Layli va Majnun”ining Nizomiy va Dehlaviy dostonlaridan tub burilish va novatorligini baholang.
13	“Sab’ai sayyor” "Me’mor va yetti qasr" haqida qisqacha ma’lumot bering.	“Sab’ai sayyor”da Bahrom va Dilorom timsollari va ularning taqdirini izohlang.	“Sab’ai sayyor”dagi yettita musofir hikoyatining kompozitsion va g‘oyaviy vazifasini tahlil qiling.	Bahromning davlat hukmdori sifatidagi tanazzuli va ma’naviy saboqlarining berilishini yoriting.	“Sab’ai sayyor”dagi yetti rang, yetti iqlim va yetti koida simvolikasining tasavvufiy talqinini baholang.

14	“Saddi Iskandariy” dostonining mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishini ayting.	Iskandar va adolatli shoh konsepsiyasining badiiy talqinini izohlang.	“Saddi Iskandariy”da Arastu, Platon va boshqa donishmandlar timsollarining o‘rnini tahlil qiling.	“Saddi Iskandariy”dagi falsafiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va umummadaniy masalalarni yoriting.	“Saddi Iskandariy”dagi hayot foniyligi, qazo-yu qadar va fojiaviylik motivlarining falsafiy xulosasini berib o‘ting.
15	“Majolis un-nafois” asarining yaratilishi va maqsadini ayting.	“Majolis un-nafois”dagi 8 majlis va ularda shoirlarning taqsimlanishini izohlang.	“Majolis un-nafois”da turkiy tilda ijod qilgan shoirlarga berilgan xolis baholarni tahlil qiling.	“Majolis un-nafois”ning XV asr Hirot va Movarounnahr adabiy muhitini o‘rganishdagi manbalik o‘rnini yoriting.	Navoiyning tazkiranavislik maktabi va uning keyingi davr adabiyotshunosligiga ta’sirini baholang.
16	“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining yozilish sababi va maqsadini ayting.	“Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy va forsiy tillarning qiyosiy tahlili berilishini izohlang.	Turkiy tilning leksik boyligi, fe’llar va so‘z yasalish imkoniyatlarining ilmiy asoslanishini tahlil qiling.	Navoiyning turkiy tilning milliy maqomini va nufuzini tiklashdagi xizmatlarini yoriting.	“Muhokamat ul-lug‘atayn”ning o‘zbek va umumburchak tilshunosligi tarixida tutgan kontseptual o‘rnini xulosalang.
17	“Mahbub ul-qulub” asarining tuzilishi va 3 qismini ayting.	“Mahbub ul-qulub”da ijtimoiy tabaqalar, kasb-hunar egalari hamda davlat amaldorlari tavsifini izohlang.	“Mahbub ul-qulub”dagi pand-hikmatlar, aforizmlar va axloqiy-ta’limiy qarashlarni tahlil qiling.	“Mahbub ul-qulub”ning saj’ san’ati va nasriy poetika nuqtai nazaridan yuksak uslubini yoriting.	Navoiyning komil inson va adolatli jamiyat qurish haqidagi didaktik va falsafiy qarashlarini xulosalang.
18	“Nasoyim ul-muhabbat” asarining mazmuni va manbasini ayting.	“Nasoyim ul-muhabbat” da tasavvuf namoyandalari va valiylar hayoti tasvirlanishini izohlang.	“Nasoyim ul-muhabbat” da turk sheyxlariga ajratilgan o‘rin va ularning ma’naviy martabasini tahlil qiling.	Navoiyning tasavvufiy tariqatlar va pirlarga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yoriting.	“Nasoyim ul-muhabbat” ning tasavvuf tarixi hamda ma’rifiy-falsafiy manba sifatidagi xos qimmatini baholang.
19	“Lison ut-tayr” dostonining yaratilish tarixi va mavzusini ayting.	Attorning “Mantiq ut-tayr”i va Navoiy dostoni o‘rtasidagi qiyosiy jihatlarni izohlang.	“Lison ut-tayr”dagi 7 tasavvufiy vodiy (Talab, Ishq, Ma’rifat va b.) mazmunini tahlil qiling.	Hudhud, Simurg‘ va boshqa qushlar allegoriyasi hamda ularning ramziy ma’nolarini yoriting.	“Lison ut-tayr”da Vahdat ul-vujud ta’limoti va insonning ruhiy poklanish kontseptsiyasini baholang.
20	“Xamsat ul-mutahayyirin” asarining mavzusi va bag‘ishlovini ayting.	“Xamsat ul-mutahayyirin” da Navoiy va Abdurahmon Jomiy o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik hamkorligini izohlang.	“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari mazmunini tahlil qiling.	“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” yodnomalarida davrning ma’naviy-madaniy muhiti va shaxslar xarakteri chizgilarini yoriting.	Navoiyning memuar va biografik nasr taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xulosalang.
21	“Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” asarlarini ayting.	“Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam”da Payg‘ambarlar, donishmandlar va qadimiy shohlar tarixi berilishini izohlang.	“Arba’in” (Qirq hadis) va “Nazm ul-javohir” asarlarining ma’rifiy mazmunini tahlil qiling.	“Siroj ul-muslimin” va “Munojot” asarlaridagi diniy-fiqhiy hamda tazarru ohanglarini yoriting.	Navoiyning tarixnavis va ma’rifatparvar olim sifatidagi merosini baholang.
22	“Vaqfiya” asarining yaratilish sababi va xarakterini ayting.	“Vaqfiya”da Navoiy tomonidan barpo etilgan binolar va xayriya jamg‘armalarini izohlang.	“Vaqfiya”ning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy hujjat sifatidagi ahamiyatini tahlil qiling.	“Vaqfiya”dagi avtobiyografik ma’lumotlar va Navoiyning shaxsiy hayoti chizgilari berilishini yoriting.	Navoiyning saxovat va ma’rifatparvarlik borasidagi amaliy faoliyatini xulosalang.
23	Lafziy badiiy san’at deb nimaga aytilishini tushuntiring.	Tajnis (jinis) san’ati va uning turlari (tom, noqis va b.) qo‘llanilishini izohlang.	Tarse’, ishtiyoq va tasrif san’atlarining she’riyatdagi o‘rni va vazifasini tahlil qiling.	Lafziy san’atlarning musiqiylik va shakliy go‘zallik yaratishdagi o‘rnini yoriting.	Navoiyning so‘z o‘yini va shakliy san’atlardan yuksak estetik maqsadlarda foydalanish mahoratini baholang.
24	Ma’naviy badiiy san’at tushunchasi va uning turlarini ayting.	Tazod, mutazodd va tafsiya san’atlarining she’rda qo‘llanilishini izohlang.	Talmeh va irsoli masal san’atlarining g‘oyaviy-ma’rifiy ta’sirini tahlil qiling.	Tanosub, iyhom, leffu nashr va tajsid san’atlarining poetik jozibasini yoriting.	Ma’naviy san’atlarning she’r mazmunini teranlashtirish va badiiy tasvir yaratishdagi o‘rnini baholang.
25	Tashbeh, istora va majoz tushunchalariga ta’rif bering.	Navoiy g‘azallarida tashbeh turlari va uning o‘ziga xosligini izohlang.	Istora (metafora) va uning tasvirchanlikni oshirishdagi o‘rnini tahlil qiling.	Mubolag‘a, ig‘roq va g‘uluvv san’atlarining badiiy emotsional vazifasini yoriting.	Navoiyning o‘ziga xos va betakror obrazlar yaratish hamda badiiy mahoratini xulosalang.
26	Qofiya va radifning she’rdagi o‘rni va ta’rifini bering.	Navoiy she’riyatida qofiya turlari hamda qofiya islohotini izohlang.	Radif va hojib munosabatlari va ularning poetik vazifalarini tahlil qiling.	Qofiyadosh so‘zlarning ma’noviy va emotsional mosligini yoriting.	Navoiyning qofiyashunoslik rivojiga qo‘shgan hissasini baholang.
27	Tasavvuf va Naqshbandiylik tariqati haqida tushuncha bering.	Navoiy asarlarida Vahdat ul-vujud ta’limotining aks etishini izohlang.	Soliq, pir, murchid va irfoniy bosqichlar tasvirini tahlil qiling.	Tasavvufiy ramz va timsollarning poetik va falsafiy funktsiyalarini yoriting.	Navoiyning tasavvufiy-falsafiy dunyoqarashi va uning insonparvarlik mohiyatini baholang.
28	Navoiyning fors-tojik va turkiy adabiyotlar doirasidagi o‘rnini ayting.	Navoiy va Jomiy ijodiy hamkorligining adabiy aloqalardagi o‘rnini izohlang.	Navoiy asarlarining boshqa xalqlar tillariga tarjima qilinishi va ta’sirini tahlil qiling.	Qaraqalpoq, uyg‘ur va ozarbayjon adabiyotida Navoiy an’analari davomini yoriting.	Navoiy merosining umummadaniy va jahon adabiyotidagi o‘rni hamda ahamiyatini xulosalang.
29	Tekstologiya va manbashunoslik fani haqida ma’lumot bering.	Navoiy asarlarining saqlangan nodir qo‘lyozmalari va mo‘tabar nusxalarini izohlang.	Matnshunoslikdagi xatoliklar, farqli o‘qilishlar (variantlar)ni tahlil qiling.	Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish masalalarini yoriting.	Bugungi kunda Navoiy matnlarini asl holicha tiklash va nashr etish vazifalarini baholang.

30	Navoiyshunoslikni ta’lim tizimida o‘qitishning asosiy maqsadini ayting.	Maktab va oliy ta’limda Navoiy asarlarini tahlil qilish usullarini izohlang.	Navoiy g‘azallarini sharhlash va ifodali o‘qish mashg‘ulotlari metodikasini tahlil qiling.	Navoiy ijodini o‘rganishda zamonaviy pedtexnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini yoriting.	Navoiy ma’naviy merosini yosh avlod va jahon hamjamiyatiga targ‘ib etishning istiqbollarini xulosalang.